

## MINTAQALARDA ISLAB CHIQRISH KORXONALARNING

### IQTISODIY SAMARADORLIGI

Obidov Rasuljon Abdulxayevich

TKTIYF, Umumiy fanlar kafedrası- o`qituvchisi

Ishonxodjayev Javlonbek Jaxongir o`g`li

3-bosqich talabasi

Sanoat barcha iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Keyingi yillarda bu soha rivojiga alohida e`tibor qaratilib, yuqori texnologiyali zavodlar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Import qilinayotgan tovarlarni yurtimizda ishlab chiqarish, xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirib sotish darajasi yetarli emasligi natijasida ko`p mahsulotlar chetdan keltirildi. Xususan, misning atigi 25 foizi qayta ishlanmoqda, ruxning 80 foizi, molibdenning 99 foizi, ipakning 88 foizi, xom terining 60 foizi xomashyo tarzida tarkibidan kelib chiqib, 2019-2021 yillarda sanoatlashtiriladigan mahsulotlar ro`yxati shakllantirildi. Sanoat rivojida tarmoqlarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo`lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qaroriga muvofiq mahalliy sanoat ishlab chiqaruvchilarni davlat xaridlari orqali qo`llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilmoqda[2].

Sanoatning ijtimoiy ishlab chiqarishning mustaqil tarmog`i sifatida vujudga kelishi hunarmandchilikning qishloq xo`juligidan ajralib chiqishi - ikkinchi eng yirik mehnat taqsimoti bilan bog`liq. Kapitalistik G`arbiy Evropa mamlakatlarida 14-15 asrlarda paydo bo`ldi va oddiy kapitalistik kooperatsiya, manufaktura va yirik mashina industriyasi - fabrika bosqichlarini bosib o`tdi, 18 asr oxiri - 19 asr boshlarida manufakturadan mashina industriyasiga o`tish dastlab Angliyada, keyinroq boshqa Yevropa mamlakatlarida sanoat to`ntarishi tusini oldi. Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlarda sanoat 18 asr boshidan manufaktura ko`rinishida rivojlandi, 19 asrning 2-yarmidan mashina industriyasi taraqqiy etdi. Mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxida transport xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. Dunyoda ushbu ko`rsatkich 8-9 foizdan oshmaydi. Shuningdek,



mahsulotlarni sertifikatlash ham eksportda juda muhim omil. Shundan kelib chiqib, transport xizmatlari narxini kamaytirish, mahsulotlarni tashqi bozorlardagi texnik sifat talablariga uyg'unlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ishlab chiqarish va sertifikatlash sohalari mutaxassislari malakasini oshirish masalalariga ham e'tibor qaratilishi lozim.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mavjud:

- investitsiya loyihalari bilan shug'ullanuvchi shaxslarni rag'batlantirish;
- sanoatning ustuvor sohalari, yoqilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsiya loyihalarining tuzishni jadallashtirish;
- iqtisodiyotda ilm-fanga talab kuchli tarmoqlarida ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalarni amalga kiritilishi[1].

Raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish korxonalarining samarali ishlashi va beqiyos rivojlanishining zarur sharti bo'lib qolmoqda. Barcha turdagi yangi tovarlar sanoat tarmoqlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar, kichik biznes sub'ektlari tomonidan o'zlashtirilib orilmoqda. Turli faoliyat sohalari bo'yicha yangi korxonalarining tashkil etilishi, ya'ni sanoat tarmoqlari, xususan, avtomobilsozlikning rivojlantirilishi pirovard natijada O'zbekiston tovar oboroti tarkibida, uning eksport va importida o'z ifodasini topmoqda. Bizningcha O'zbekiston avtomobilsozlik mahsulotlari eksportini kengaytirish strategiyasi rivojlangan uzoq xorijiy mamlakatlarga emas, balki rivojlanayotgan uzoq xorijiy mamlakatlar tomon qaratilmog'i lozimdir. Chunki rivojlangan xorijiy mamlakatlar bozorlari segmentining katta qismi dunyoda avtomobilsozlik sanoati bo'yicha shuhrat qozongan yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan zabt etilgan bo'lib, u shbu holat O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillarning mazkur bozorlarda ayirboshlash imkonlarini chegaralab qo'yadi yoki xarid narxining tushishiga sabab bo'ladi.

Xususan, viloyatlarda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, aholining bandligi va daromadlari oshishini ta'minlash uchun mavjud sanoat salohiyatidan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoatning tarmoq va hududlar bo'yicha diversifikatsiya darajasi pastligi, xom ashyo bazasining yetarlicha



rivojlanmaganligi va uning sust o`zlashtirilganligi, ishlab chiqarishni keskin oshirishda chuqur qayta ishlash hisobiga katta zaxiralar mavjudligi — uch milliondan ziyod aholiga ega hududda iqtisodiy o`shishning qo`shimcha imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi taqozo etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**

1. G`ozibekov D.G`. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish va lizing. //Bozor, pul va kredit. - 1999. May, 5 son. - B. 50-53.
2. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post>.

